

TASVIRIY SAN'ATDA ESTETIKA VA GO'ZALLIK TUSHUNCHASI

*Guliston Davlat universiteti**San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi***Karshiboyeva Dilafruz***Rangtasvir yo'nalishi 2- bosqich talabasi***Boqiyeva Tahmina**

Annotatsiya: Tasviriy san'atda estetika va go'zallik tushunchalari inson tafakkuri va hissiyotlarini aks ettirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Estetika, san'atni baholash va tushunish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, go'zallik me'yirlari zamon va madaniyatga qarab o'zgarib boradi. Ushbu maqolada tasviriy san'atda estetik tamoyillar, go'zallikning subyektiv va obyektiv talqinlari, shuningdek, klassik va zamonaviy san'at yo'nalishlaridagi go'zallik konsepsiyalari tahlil qilinadi. San'atda uyg'unlik, ranglar balansini yaratish va kompozitsion tuzilish yordamida vizual estetikani shakllantirish usullari muhokama etiladi. Bundan tashqari, san'atning falsafiy jihatlari ham ko'rib chiqilib, insonning go'zallikni idrok etish jarayoni haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: Эстетика и понятие красоты в изобразительном искусстве являются важными элементами художественного выражения человеческого восприятия и эмоций. Эстетика играет ключевую роль в оценке искусства, а представления о красоте меняются в зависимости от эпохи и культуры. В данной статье рассматриваются эстетические принципы в живописи, субъективные и объективные интерпретации красоты, а также концепции красоты в классическом и современном искусстве. Обсуждаются методы создания визуальной эстетики через гармонию, баланс цветов и композиционные решения. Кроме того, исследуются философские аспекты искусства и восприятие красоты человеком, позволяя глубже понять его эстетическое восприятие.

Abstract: Aesthetics and the concept of beauty in visual arts are fundamental elements of artistic expression, reflecting human perception and emotions. Aesthetics play a crucial role in evaluating art, and the standards of beauty evolve depending on historical periods and cultural influences. This article examines aesthetic principles in painting, subjective and objective interpretations of beauty, and beauty concepts in classical and contemporary art. It discusses methods of achieving visual aesthetics through harmony, color balance, and compositional structuring. Furthermore, philosophical aspects of art and the human perception of beauty are explored, providing deeper insight into aesthetic appreciation.

Kalit so‘zlar: tajriba, rivojlanish, matematika, dasturlash, san’at, biznes, tilshunoslik, tarix, ekologiya, texnologiya, muhandislik, kreativlik, tahlil, dizayn, ilm-fan, innovatsiya, algoritmlar, strategiya, psixologiya, marketинг, iqtisod, lingvistika

Ключевые слова: опыт, развитие, математика, программирование, искусство, бизнес, лингвистика, история, экология, технологии, инженерия, креативность, анализ, дизайн, наука, инновация, алгоритмы, стратегия, психология, маркетинг, экономика

Keywords: experience, development, mathematics, programming, art, business, linguistics, history, ecology, technology, engineering, creativity, analysis, design, science, innovation, algorithms, strategy, psychology, marketing, economics

“Estetika” (yunon. aisthetikos – his qilinadigan) iborasi dastlab olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (u G‘arbiy Evropa falsafiy tafakkurida muhim o‘rin tutgan Volf maktabi namoyondasi hisoblanadi)ning “Estetika («Aesthetica»)” nomli ikki tomlik asari (1750-1758- y.y.)da muomalaga kiritilgan. Baumgarten estetikani bilishning yuksak darajasi hisoblangan mantiqdan farqli o‘laroq, hissiy bilishning quyi darajasidagi fan sohasiga tegishli deydi. Uning fikricha, mantiqiy mushohada aniq tasavvurlarga, estetik mushohada esa noaniq va mavhum tasavvurlarga asoslanadi. Buning birinchisi – aql muhokamasiga, ikkinchisi – did muhokamasiga tegishlidir. Biroq, insonning universum bilan munosabati avval estetik mushohada orqali ro‘y beradi, so‘ngra mantiqiy mushohada

orqali amalga oshadi. Shunga ko‘ra, estetikaning predmeti – go‘zallik, mantiqniki – haqiqatdir. Baumgartenning estetikaga kiritgan ushbu nazariyasi keyinchalik san’at falsafasiga nisbatan keng qo‘llanildi. Bu nazariya Immanuil Kant, Fridrix Gegel va boshqa faylasuflar tomonidan rivojlantirildi, hatto fanning predmetini aniqlashda go‘zallik masalasi bilan boshlangan mulohazalar to g‘oyalar olamining falsafiy mohiyatiga tegishli mulohazalar bilan bog‘lanib ketdi. Shuning uchun ham ko‘pchilik nazarida Baumgarten “estetikaning asoschisi” sifatida tilga olinadi. Ammo, nemis faylasufi Teodor Lipps estetikani mohiyatan “nemislarga xos fan” ekanligini ta’kidlagani holda Germaniyada estetikaning asoschilari sifatida 4 nafar faylasuf - Gotxold Efraim Lessing, Iogann Gotfrid Gerder, Immanuil Kant, Fridrix SHillerni ko‘rsatib o‘tadi. U Immanuil Kant “estetikaning asoschisi” sifatida birinchi bo‘lib estetik qadriyatlarni shakllanadigan va rivojlanadigan “hudud”ning chegarasini belgilab berdi. Shundan keyingina estetika masalalari Kantning idealistik falsafasi bilan birlashdi va rivojlandi, - degan xulosaga keladi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, “Estetika fan emas, uning mazmuni fanning ilmiy talablariga javob bermaydi”, - degan fikrlar estetikaning mohiyatini tushunmaslik natijasida kelib chiqqan fikrlardir. Odatda, fan - dunyo haqidagi obektiv bilimlar tizimi; uni ma’lum maqsadlar yo‘lida o‘zgartirishga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Estetika ham fan sifatida o‘zining qonuniyatiga, kategoriyalariga va tushunchalar tizimiga ega. Biroq, “Estetika – go‘zallik haqidagi fan” deyish asl mohiyatni anglatmaydi. Aksincha, estetika keng qamrovli fan sifatida: a) u yoki bu voqelikka daxldor go‘zallik tuyg‘ularining mohiyatini bilishga intiladigan hodisalar majmui; b) borliqni hissiy idrok etishga asoslangan ong shakli; v) haqiqatni anglash va his qilish, qadriyatlarni bilish va tahlil etishga qaratilgan inson faoliyatining turidir. Estetika ilmiy-nazariy masalalar va fan talablari doirasidan tashqarida qo‘llanilganda ko‘plab ma’nolarni anglatishiga sabab ham ana shunda. Qolaversa, boshqa fanlar kabi estetika ham odamlarga umumiy zaruriyat yuzasidan kundalik faoliyatda kerak bo‘ladigan narsa-hodisalarni (chiroyli bo‘lish, orasta kiyinish, ozoda yurish, nafis harakat qilish kabi masalalar bilan estetikaning muayyan sohasi shug‘ullanadi) emas, balki estetika fan sifatida estetik tarbiyani takomillashtirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish, odam tuyg‘usini tarbiyalash, uning did,fahm-farosatini yuksaltirishga qaratilgan fundamental

masalalarining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va yechimini topishga e’tibor beradi. Zero, estetikaning mavjudlik shartini nafosatshunos O.A.Krivosun ”Qayerdaki inson tafakkuri va tabiat hodisasi tufayli yaratilgan predmetlar olamini his etish yoki undan zavqlanish tuyg‘usi sodir bo‘lar ekan o‘sha erda “estetik jarayon”, “estetik hodisa” ro‘y beradi” – deb izohlaydi. Shu ma’noda, qayerdaki, yashashga ishonch, yashash umidi, yashashdan maqsad yoki voqelikni hissiy idrok etishga, tabiat hodisalarini anglashga ehtiyoj sezilsa, o‘sha yerda estetika mavjuddir, desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Estetika predmeti, obyekti va tadqiqot doirasiga ega fan. Ma’lumki, barcha fanlar o‘z predmetiga ega bo‘lib, olamning mohiyatini bilish, borliqning mazmunini tushunish, voqelikni tasavvur qilishga qarab har bir fan o‘z predmetini belgilaydi. Olaylik, salomatlik tibbiyotning maqsadi bo‘lsa, uning predmeti - inson salomatligini asrash, mustahkamlash, himoya qiluvchi vositalar, hodisalar, omillar hisoblanadi. Biroq, estetikaning predmetini tibbiyotnikidek bir so‘z bilan ifodalash qiyin. Mohiyatan insonni paydo bo‘lishi va voqelikni idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha qadriyatlar estetikaning predmeti bo‘la oladi. Jumladan, tabiat va uning estetik xususiyatlari, san’at va uning badiiy obrazlardagi ifodasi, ijod jarayoni va uning qonuniyatları, jamiyat va uning rivojlanish prinsiplari estetikaning predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Chunonchi, Immanuil Kantning nazarida estetikaning predmeti – bu san’atdagi go‘zallik bo‘lib, u estetik muhokama qobiliyatini tanqid sifatida namoyon bo‘ladi. Fridrix Gegel esa estetikaning predmetini umuman san’at, xususan tasviriy san’at bilan cheklab qo‘yadi. Shu ma’noda estetikaning predmeti – olam va uning umuminsoniy ahamiyatiga ko‘ra o‘rganiladigan estetik hodisalar hisoblanadi. Biroq, estetikaning predmeti estetik tajribaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama tadqiq etishni, shuningdek, insonning biroz bo‘lsa-da o‘zining ma’naviy olamga tegishli ekanligini, global ijtimoiy-utilitar tobelikdan halos bo‘lish yo‘llarini anglashni, shaxsiy erkinligi va mutloq va uyg‘un to‘laqonli hayotning bir qismi ekanligini his qilishga qaratilgan masalalar bilan belgilanadi. Estetika fan sifatida ilmiy, ma’rifiy, badiiy taraqqiyotning o‘ziga xos muammolari doirasida bahs yuritadi, tahlil qiladi, o‘rganadi va o‘rgatadi. Go‘zallik – bu ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uni idrok qilishda subyektiv va obyektiv jihatlar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ayrim falsafiy oqimlar go‘zallikni universal mezonlarga

asoslangan obyektiv hodisa deb bilsa, boshqalari uni har bir insonning shaxsiy tajribasi va his-tuyg‘ulariga bog‘liq subyektiv tushuncha sifatida ko‘radi. Go‘zallikning obyektiv aspektlari ko‘pincha tabiatda va san’atda kuzatiladigan mutanosiblik, uyg‘unlik va maxsus estetik qonuniyatlarga asoslanadi. Bu qonunlar: matematik proporsiyalar (oltin kesish nisbati, simmetriya va geometriya tamoyillari tabiatda ham, san’atda ham uyg‘unlikni ta’minlovchi obyektiv mezonlardir), tabiiy go‘zallik (peyzaj, hayvonlar, gullar va inson qiyofasi kabi ob’ektlar ko‘pincha universal estetik mezonlarga mos keladi)dir. San’atda klassik go‘zallik – Antik san’at va Uyg‘onish davri san’at asarlari mukammal anatomiya va nisbatlarga asoslangan bo‘lib, obyektiv go‘zallik mezonlarini namoyon etadi. Go‘zallikning subyektiv aspektlari har bir insonning individual tajribasi, madaniyati va hissiy idroki bilan bog‘liq. Madaniy farqlar – Har bir jamiyatda go‘zallik standartlari o‘ziga xosdir. Masalan, Sharq va G‘arb san’atida go‘zallik tasavvurlari turlicha bo‘lishi mumkin. Hissiy idrok go‘zallikni har bir inson o‘z shaxsiy hissiyotlari orqali baholaydi. Bir kishi uchun estetik jihatdan jozibador bo‘lgan narsa boshqasi uchun oddiy yoki yoqimsiz bo‘lishi mumkin. San’atda eksperimentallik zamonaviy san’atda an’anaviy go‘zallik tushunchalaridan voz kechib, hissiy va subyektiv tajribalarga asoslangan san’at asarlari yaratish keng tarqalgan.

Tasviriy san’at – rangtasvir, haykaltaroshlik va grafikani birlashtirgan nafis san’at turi. Voqelikni uning osongina ilg‘ab olinadigan fazoviy shakllarda ko‘rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san’at turlari o‘z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatlari – hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o‘zgarishlari hissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretliligidan illuziomizmga o‘tish mumkin. Tasviriy san’at faqat ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyonи g‘oyaviy o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san’at insonning ruhiy qiyofasini, uning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotSIONAL mazmunini ham yoritadi. Ba’zan mavjud bo‘lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo‘lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g‘oyaviy mohiyati, siyosiylar.

falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzu-umidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumg'oyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marhumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar qo'yish odatlarida tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, g'or devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'y-xayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan. Ijtimoiy jamoa tuzumining inqirozi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi tasviriy san'at rivojida muhim o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at inson faoliyatining ma'lum sohasiga aylanib davr ruhiyati, uning siyosiy, ma'naviy va nihoyat estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbara aylandi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan Qadimgi Misrda tasviriy san'at insonning dunyo, borliq to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini, xudolar darajasiga ko'tarilgan fir'avnlarni ulug'lash quroliga aylandi. Yunonistonda tasviriy san'at jamiyatning erkin fuqarosiga qaratilgan va antik mifologiyaning g'oyalarini plastik moddiylashtirilgan ko'rinishida kamol topdi, Qadimgi Rim realizmida murakkab inson jismi namoyon bo'ldi. Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan hisoblangan O'rta Osiyo, uning ajralmas qismi O'zbekiston hududida ham tasviriy san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Zarautsov rasmlari, Xorazm, So'g'd, Baqtriya mahobatlari haykal va rangtasvirlari shuning

dalilidir.O‘rta asrlar tasviriy san’ati uslub jihatidan rang-barang, turlari keng va xilma-xil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. Hindiston,Indoneziya, HindiXitoy o‘lkalarida betakror haykaltaroshlik asarlari yaratildi. O‘rta Sharq mamlakatlarida miniaturaning o‘ziga xos turi yaratilgan bo‘lsa, O‘rta asr Yevropaning madaniyatida haykaltaroshlik va rassomlik diniy e’tiqod va dunyoqarashlar zaminida o‘ziga xos yo‘nalish va mazmun kashf etdi, ikona san’ati ravnaq topdi.Roman uslubi va gotika barpo etilgan me’moriy obidalarda san’atlar sintezining ajoyib namunalari yaratildi.

Xulosa: Estetika va tasviriy san’at bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar bo‘lib, inson idrokini, hissiyotini va tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. San’at faqat go‘zallikni ifodalash vositasi emas, balki jamiyatning madaniy va falsafiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim element hamdir.Estetika san’atning vizual va ma’naviy jihatlarini anglashga yordam beradi. U nafaqat san’atni baholash mezonlarini belgilaydi, balki tomoshabinning ichki idrokini shakllantiruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi. Go‘zallik tushunchasi har bir madaniyatda turlicha talqin etiladi, shu sababli san’atda estetikaning roli doimiy ravigda rivojlanib boradi. Tasviriy san’at tarix davomida turli shakllarda namoyon bo‘lib, jamiyatning estetik tamoyillarini belgilab kelgan. Antik davrda ideal go‘zallik tamoyillari hukmron bo‘lsa, zamonaviy san’atda subyektiv ekspressiya va hissiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. San’atning vizual ta’siri inson ruhiyatiga, madaniy qadriyatlariga va individual idrokiga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- 1.[HVT da badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san’atni ahamiyati](<https://mbaza.uz/anywork/hvt-da-badiiy-adabiyot-kino-teatr-va-tasviriy-sanatni-ahamiyati/>)
- 2.[San’at - Vikipediya](<https://uz.wikipedia.org/wiki/San%CA%BCat>)
3. Лосев А. Ф. – "Эстетика и искусство"
4. Бахтин М. М. – "Эстетика словесного творчества"
5. Каган М. С. – "Эстетика как философская наука"

6. John Dewey – *Art as Experience*

7. Clive Bell – *Art*

8. Nelson Goodman – *Languages of Art*

9. Bohodirovna, K. D. (2024). TASVIRIY SAN'ATDA O'ZBEK MILLIY O'YINLARI KOMPOZITSIYASINING YORITILISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(12), 34-37.

10. Bohodirovna, K. D. (2024). TASVIRIY SAN'AT VA FALSAFA O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK HAMDA ULARDAGI ESTETIK TUSHUNCHALARING INSONIYAT MADANIYATIGA TA'SIRI. Научный Фокус, 2(19), 356-358.

11. Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI. MASTERS, 3(2), 137-141.

12. Boxodirovna, K. D., & Bunyodovna, B. T. (2025). PUANTILIZM VA ABSTRAKTSIYA USLUBLARIDA" BAHOR IFORI" MAVZUSI. MASTERS, 3(2), 142-146.

13. Boxodirovna, K. D. (2025). TASVIRIY SAN'ATDA INSON QIYOFASIDAN CHIZGILARNI BAJARISH. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 4(43), 144-148.

14. Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYA FANINI O'QITISHDAGI INNOVATSION USULLARINING AHAMIYATI. YOSH OLIMLAR, MAGISTR VA IQTIDORLI TALABALARING ILMIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA ULARGA QARATILGAN KREATIV G'OVALAR, YECHIM VA TAKLIFLAR, 3(26), 35-39.